**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Jizzax DPU rektori
professor Sh.S.Sharipov
____________________
“____” _________ 2022 yil

# “AMALIY SIYOSATSHUNOSLIK”

fanining o’quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 110000 – Ta’lim

**Magistratura mutaxassisligi:** 70112101 -Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari)

**JIZZAX – 2022**

**JIZZAX – 2022**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>ASIB-105</td><td>O‘quv yili<br>2022-2023</td><td>Semestr<br>3</td><td>ECTS -<br>Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="3">Fan/modul turi<br>Tanlov</td><td>Ta’lim tili<br>O‘ZBEK</td><td>Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Amaliy siyosatshunoslik</td><td>60<br>Ma’ruza - 30<br>Seminar - 30</td><td>60</td><td>120</td></tr>
<tr><td>2</td><td colspan="4">I. Faning mazmuni<br>Fanni o‘qitishdan maqsad – Amaliy siyosatshunoslik fani, uning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, mexanizmlari, uslublari, islohotlar jarayoni bilan uyg‘un bog‘liqligi, davlat boshqaruvidagi o‘rni, turli siyosiy jarayonlarda amaliy faoliyatda siyosiy ong va madaniyatni to‘g‘ri qo‘llay bilish bilimiga ega bo‘lishi, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan. Mazkur fan zamonaviy amaliy siyosatshunoslik doirasidagi bilimlarni shakllantirish va tahliliy ko‘nikmalarni qaror toptirish, siyosatning fundamental modellaridan foydalanish va voqealarni tahlil etish haqida bilim berish, siyosiy xavflarni baholash va ularni amaliyotda o‘zlashtirish,siyosiy bashorat modellarini o‘rgatish, siyosiy axborot yig‘ish va ularni tizimli tahlil qilish ko‘nikmalarni shakllantirish, siyosiy tadqiqot texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini shakllantirishga karatilgan.<br>Fanning vazifasi – talabalarning siyosiy savodxonligini tarbiyalash, ularning mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; talabalarni atrofdagi siyosiy voqelik masalalarini o‘rganishga o‘rgatish, ularni hozirgi bosqichda bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga faolroq jalb qilish; kasbiy fazilatlarni shakllantirishga hissa qo‘shish; dunyoning o‘zgaruvchan siyosiy manzarasi haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishga yordam berish; siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, siyosiy qarorlar qabul qilish, siyosiy tahlil va prognoz vositalariga ega bo‘lishning asosiy usullarini talabaga o‘rgatish.<br>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)<br>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</td></tr>
</table>

**1-mavzu. Amaliy siyosatshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Amaliy siyosatshunoslikning predmeti, usullari, maqsadi va vazifalari. Siyosatshunoslikda fundamental va amaliy tadqiqotlarning mezonlari hamda o‘zaro farqlanishi. Amaliy siyosatshunoslikning asosiy yo‘nalishlari: siyosiy tahlil; siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni; yo‘naltirilgan siyosiy ta’sir texnologiyalari. Siyosatshunoslik bilimlari tizimida amaliy siyosatshunoslikning o‘rni va roli.

**2-mavzu. Siyosiy menejment**

Davlat va munitsipal boshqaruvda siyosiy menejment. Ma’muriy islohotlarni boshlash va amalga oshirish. Demokratik qadriyatlar va davlat boshqaruvi, davlat boshqaruvini tadqiq etish metodologiyasi. Jamoatchilik sektori, jamoatchilik sektorini boshqarish nazariyalari, jamoatchilik sektorida samaradorlikni baholash.

**3-mavzu. Saylov tizimlari va saylov texnologiyalari.**

“Saylov” tushunchasi va uning asosiy tamoyillari, tizimlari. “Saylov kampaniyasi” tushunchasiva tasnifi. Saylov kampaniyasida rasmiy “o‘yin qoidalari”ni baholashda huquqiy me’yorlar va madaniy an’analarni hisobga olish. Siyosiy raqiblarga qarshi saylovoldi kurash taktikasi. Saylov kampaniyalarining strategiyasi va taktikasi, resurslari, yo‘nalishlari va bosqichlari. Saylov kampaniyasini analitik qo‘llab-quvvatlash. Saylov kampaniyasi texnologiyalari. Ommaviy axborot vositalari bilan muloqot va targ‘ibot ishlari.“Siyosiy reklama” tushunchasi. Siyosiy reklamaning ijtimoiy tabiati va uning manipulyatsiya hamda ommaviy muloqot usuli sifatidagi xususiyatlari.

**4-mavzu. Siyosiy konsalting**

Siyosiy konsaltingning asosiy funksiyalari va turlari. Siyosat konsalting qoidalari. Konsultant va mijoz o‘rtasidagi masofa. Konsultant obrazlari: “menejer”, “o‘t o‘chiruvchi”, “o‘qituvchi”, “maslahatchi”, “shifokor” va boshqalar. Siyosiy ekspert ishidagi xizmatlarning foydaliligi va ma’lumotlarning ahamiyati. Konfidensiallikning roli.

**5-mavzu. Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg‘unligini baholash usullari**

Siyosiy tahlilda ijtimoiy-siyosiy kuchlarning uyg‘unligi va muvozanati diagnostikasi.Ijtimoiy va siyosiy aktorlarning turlari. Aktorlarning tarkibi va xususiyatlari. Vaziyatdagi kuchlar muvozanatini baholash: aktorlarning “chapdan o‘ngga” siyosiy pozitsiyalari to‘plami va ular orasidagi munosabatlar.Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg‘unligini baholashning jadvalli va dinamik metodikasi.

**6-mavzu. Siyosiy risklarni tahlil qilish va baholash metodologiyasi**

Risk tushunchasi va uning turlari. Siyosiy riskning o‘ziga xosligi va tuzilishi. Siyosiy riskning ob’ektiv va sub’ektiv komponentlari. Siyosiy

riskni tadqiq etish maqsadlariva tahlil qilish metodikasi. Siyosi risk darajasi. Risk darajalarining ko‘rsatkichlari va baholash metodikasi. Siyosiy risklarni boshqarish. Turli aktorlar tomonidan qaror qabul qilish jarayonida siyosiy risklarni hisobga olish.

**7-mavzu. Amaliy siyosatshunoslik tadqiqoti usullari. Muammoli-siyosiy vaziyat: tuzilishi, shakllari va tahlil turlari**

Siyosiy jarayonlarni amaliy tadqiq qilishda ma’lumot to‘plash usullari: kuzatish, so‘rovnoma o‘tkazish, monitoring tadqiqotlari. Siyosiy tahlil qilish usullar. Siyosiy sohada tadqiqotlar olib borish: umumiy xususiyatlari, yo‘nalish, mutaxassislik va ixtisosliklar.

Siyosiy tahlilning mohiyati va ahamiyati. Siyosiy tahlil amaliy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida. Siyosiy statistikaning amaliy siyosiy tahlildagi o‘rni.Amaliy siyosiy tahlilning asosiy turlari, ularning mohiyati, tuzilishi va mazmuni. Siyosiy bashorat va strategik rejalashtirish, shuningdek, amaliy siyosatshunoslikdagi bu turdagi tahlilning o‘ziga xosligi va o‘rni.

Muammoli-siyosiy vaziyat amaliy siyosiy tahlilning boshlang‘ich nuqtasi sifatida. Siyosatning statistik va dinamik xususiyatlarini hisobga olish va siyosiy jarayonni voqealar “zanjiri” va vaziyatlar to‘plami (ansambli) sifatida tahlil qilish. “Siyosiy vaziyat” asosiy kategoriyasi va “siyosiy voqea” tushunchasi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Siyosiy vaziyatlarning turlari: mahalliy, mintaqaviy va global; uzoq muddatli (strategik), o‘rta muddatli (operativ) va qisqa muddatli (taktik); o‘tish (tranzit) va barqaror. Siyosiy vaziyat bosh modelining asosiy komponentlari. Siyosiy vaziyatda kuchlar muvozanati va nomutanosibligi.

**8-mavzu. Siyosiy bashorat: turlari va usullari**

Amaliy bashorat siyosiy prognostikaning komponenti sifatida. Siyosiy voqealarni bashorat qilishda amaliy va nazariy yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi. Bashorat turlari. Normativ va qidiruv bashoratlari. Retrospektiv (rekonstruktiv) bashorat. Siyosiy bashorat qilish uslublari vaekspert baholarining o‘rni.

**9-mavzu.Siyosiy qarorlarni qabul qilish: mohiyat va protsedura**

Qaror muqobil variantni oqilona tanlash va siyosiy harakatning ideal modeli sifatida. Siyosiy qarorlarning o‘ziga xosligi va turlari. Davlat va jamoat tashkilotlarida qaror qabul qilish xususiyatlari. Siyosiy qarorlar qabul qilish sikllari va asosiy bosqichlari. Qaror qabul qilishning asosiy turlari: individual, guruhli, ommaviy. Qaror qabul qilishning ratsional-universal usuli, tarmoq usuli va aralash-skanerlash usuli.Siyosiy qaror lobbizm ob’ekti sifatida. Bosim guruhlarining turlari.

**10-mavzu. Siyosiy konfliktlar**

“Siyosiy ixtilof” tushunchasi va nazariyalari. Ixtiloflar tasnifi; iqtisodiy, ijtimoiy, ichki-siyosiy, tashqi ijtimoiy-siyosiy, xududiy, til xususidagi

| | |
|---|---|
| | ixtiloflarning asosiy turlari; manfaatlar, qadriyatlar, monandlikka oid, gorizontal va vertikal ixtiloflar.<br>Hozirgi zamondagi ixtiloflar (davlatlararo, siyosiy partiyalararo millatlararo, guruhlararo)ning kelib chiqishi sabablari va ularni boshqarish yo‘llari. Siyosiy muzokaralar, murosa-madora - turli ixtiloflarni boshqarishning bosh yo‘li.<br>Siyosiy inqiroz: mohiyati, manbai va belgilari. Siyosiy inqirozning ko‘rinishlari: monandlik, legitimlik, ishtirok, taqsimlash inqirozlari. Hozirgi zamondagi siyosiy inqirozlar va ularni hal etish yo‘llari.<br>**11-mavzu. Davlat xizmati sohasidagi islohotlar: nazariya va amaliyot**<br>Davlat xizmati va uning islohotlari. Davlat apparatini qisqartirish: narzariya va amaliyot. Davlat xizmatini isloh qilish tarixi, zamonaviy boshqaruvning shakllanishi. O‘zbekistonda davlat xizmatlari markazlarining tashkil etilishi. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki va yangicha ko‘rinishlari<br>**12-mavzu.Korrupsiyaga qarshi kurash amaliy siyosatshunoslik fani obyekti sifatida**<br>“Korrupsiya” tushunchasi. Siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan korrupsiya mohiyatini aniqlash. Korrupsiya va jinoyatchilik. Korrupsiyaning asosiy turlari va shakllari. “Siyosiy korrupsiya” tushunchasi. Siyosiy korrupsiyaga qarshi kurashning siyosiy-huquqiy mexanizmlari. Davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va usullari. O‘zbekistonda davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashning siyosiy-mafkuraviy va siyosiy-boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish tendensiyalari.<br>**13-mavzu. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi**<br>Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot omillari.Xalqparvar davlat: “Davlat – inson uchun” tamoyili – demokratik islohotlar mezoni. Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari. O‘zbekiston rivojlanishigata’sir ko‘rsatadigan dunyodagi tendensiyalar. O‘zbekiston rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar. O‘zbekistonning 2035yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasi. O‘zbekistonda Islohotlarni boshqarish markazini yaratish. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish. Adolatli ijtimoiy siyosat.Ma’naviy taraqqiyot. O‘zbekiston va umumbashariy muammolar.O‘zbekistonni rivojlantirishning 2035 yildagi maqsadli ko‘rsatkichlari. Strategiyani amalga oshirishning asosiy bosqichlari: “Strategik pillapoya”. 2022-2025 yillarda Strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qadamlar. |
| | **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**<br>Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. | | |
| | **Amaliy mashg‘ulot mavzulari va rejalari** | | |
| | 1 | **Amaliy siyosatshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**<br>**Reja:**<br>1. Amaliy siyosatshunoslikning predmeti, usullari, maqsadi va vazifalari.<br>2. Amaliy siyosatshunoslikning asosiy yo‘nalishlari: siyosiy tahlil; siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni; siyosiy ta’sir texnologiyalari.<br>3. Siyosiy fanlar tizimida amaliy siyosatshunoslikning o‘rni. | 2 |
| | 2 | **Siyosiy menejment**<br>**Reja:**<br>1. Menejmentning paydo bo’lishi va qo’llanishi<br>2. Siyosiy boshqaruv turlari<br>3. Siyosiy boshqaruv sohasidagi professional faoliyat ko’rinishlari<br>4. Siyosiy boshqaruv: funksiyalari, siyosiy amaliyotlari, uslublari | 2 |
| | 3 | **Saylov tizimlari va saylov texnologiyalari.**<br>**Reja:**<br>1. Saylov tushunchasi, mohiyati va tiplari.<br>2. Saylovlarning demokratik prinsiplari.<br>3. Saylov tizimlari va saylov jarayonining asosiy bosqichlari<br>4. Saylov kampaniyalarini o‘tkazish va siyosiy reklamalarni amalga oshirishning umumiy tavsifi va texnologiyalari | 2 |
| | 4 | **Siyosiy konsalting**<br>**Reja:**<br>1. **“**Siyosiy konsaltingning mohiyati va funksiyalari<br>2. Siyosiy konsaltingning kelib chiqishi<br>3. Siyosiy konsaltingning sub’ektlari va tipologiyasi<br>4. Siyosiy konsalting turlari va usullari | 2 |
| | 5 | **Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg‘unligini baholash usullari**<br>**Reja:**<br>1. Siyosiy aktorlarning tarkibi va xususiyatlari.<br>2. Siyosiy elita va lider<br>3. Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg‘unlashuvini tahlil qilish | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4. Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg'unligini baholashning jadvalli va dinamik metodikasi | |
| | 6 | **Siyosiy risklarni tahlil qilish va baholash metodologiyasi**<br>**Reja:**<br>1. Siyosiy riskning mohiyati<br>2. Siyosiy riskni belgilovchi omillar<br>3. Siyosiy risklarni tahlil qilish usullari | 2 |
| | 7 | **Amaliy siyosatshunoslik tadqiqoti usullari. Muammoli-siyosiy vaziyat: tuzilishi, shakllari va tahlil turlari**<br>**Reja:**<br>1. Amaliy siyosatshunoslik tadqiqoti usullari<br>2. Siyosiy tahlil: rivojlanish omillari<br>3. Siyosiy tahlilning metodologik darajasi<br>4. Siyosiy tahlil va siyosatshunoslik paradigmalari<br>**Reja:**<br>1. Muammoli siyosiy vaziyatni tahlil qilish tushunchasi.<br>2. Siyosiy vaziyatni umumiy tahlil qilishning vertikal va gorizantal turlari.<br>3. Muammoli va diagnostik vaziyat tahlili | 4 |
| | 8 | **Siyosiy bashorat: turlari va usullari**<br>**Reja:**<br>1. Siyosiy bashoratning mohiyati<br>2. Siyosiy bashoratni o'tkazish algoritmi<br>3. Siyosiy prognozlashning umumiy tushunchalari va asosiy turlari<br>4. Rim klubi va uning kelajak muammolarini o'rganishdagi roli | 2 |
| | 9 | **Siyosiy qarorlarni qabul qilish: mohiyat va protsedura**<br>**Reja:**<br>1. Siyosiy qarorlarning mohiyati<br>2. Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni<br>3. Siyosiy qarorlar qabul qilish tartiblari va tamoyillari<br>4. Siyosiy boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonida chegaralangan ratsionallik muammosi | 2 |
| | 10 | **Siyosiy konfliktlar**<br>**Reja:**<br>1. Konfliktlar, ularning mohiyati va kelib chiqish sabablari<br>2. Konfliktlarning funksiyalari va tasnifi<br>3. Konfliktlarni boshqarish va echishning o'ziga xos xususiyatlari | 2 |
| | 11 | **Davlat xizmati sohasidagi islohotlar: nazariya va amaliyot** | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | **Reja:**<br>1. Davlat xizmati tushunchasi va uning mazmun-mohiyati<br>2. Davlat xizmati sohasida kadrlar tayyorlashning jahon tajribasi tahlili<br>3. O‘zbekistonda davlat xizmati kadrlari faoliyati samaradorligini oshirish jarayoni va uning istiqboli | |
| | 12 | **Korrupsiyaga qarshi kurash amaliy siyosatshunoslik fani obyekti sifatida**<br>**Reja:**<br>1. Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati va uning milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari.<br>2. O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi.<br>3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi. | 2 |
| | 13 | **Yangi O‘zbekiston Strategiyasi**<br>**Reja:**<br>1. Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot omillari.<br>2. Xalqparvar davlat: “Davlat – inson uchun” tamoyili – demokratik islohotlar mezoni.<br>3. Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari.<br>4. O‘zbekiston rivojlanishigata’sir ko‘rsatadigan dunyodagi tendensiyalar. | 2 |
| | | **Jami:** | **30** |

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, bunda asosiy e’tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya’ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi va shu yo‘nalish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish;

| | |
|---|---|
| | - talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularni chuqur o‘rganish;<br>- faol va muammoli o‘qitish usulidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari |
| | 1. Amaliy siyosat tadqiqotlari usullarining tasnifi. |
| | 2. Siyosiy jarayonlarni tadqiq etish bo‘yicha ish rejasini ishlab chiqish. |
| | 3. Siyosiy tahlilning sifat usullari. |
| | 4. Jamoatchilik sektorini boshqarish nazariyalari. |
| | 5. Vaziyatni siyosiy tahlil qilish va uning asosiy bosqichlari. |
| | 6. Siyosiy yo‘nalishni rejalashtirish va modellashtirish. |
| | 7. Siyosiy vaziyatlar turlari. |
| | 8. Siyosiy tahlilda ijtimoiy-siyosiy kuchlarning uyg‘unligi va muvozanati diagnostikasi. |
| | 9. Ijtimoiy va siyosiy aktorlarning turlari. |
| | 10. Jamiyatdagi siyosiy kuchlarning uyg‘unligini baholashning jadvalli va dinamik metodikasi. |
| | 11. Siyosiy tahlilning mohiyati va ahamiyati. Siyosiy tahlil amaliy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida. |
| | 12. Siyosiy statistikaning amaliy siyosiy tahlildagi o‘rni. |
| | 13. Siyosiy voqeaning tuzilishi va siyosiy voqealarni tavsifiy tahlil qilish |
| | 14. Siyosiy risklarni darajasi va uni boshqarish. |
| | 15. Siyosiy bashorat qilish uslublari va  ekspert baholarining o‘rni. |
| | 16. Siyosiy qarorlarning o‘ziga xosligi va turlari. |
| | 17. Qaror qabul qilish agentlari: qaror qabul qilish markazlari va qaror qabul qiluvchi shaxslar. |
| | 18. Siyosiy qarorlar qabul qilish sikllari va asosiy bosqichlari. |
| | 19. Siyosat konsultant obrazlari va konfidensiallikning roli. |
| | 20. “Saylov” tushunchasi va uning asosiy tamoyillari, tizimlari. |
| | 21. Saylov kampaniyasi yo‘naltirilgan boshqaruv ta’siri va fuqarolarni siyosiy safarbar qilish usuli sifatida. |
| | 22. Saylov kampaniyalarining strategiyasi va taktikasi. |
| | 23. Saylov kampaniyasi bosqichlari va texnologiyalari. |
| | 24. “Siyosiy reklama” tushunchasi. |
| | 25. Siyosiy reklamaning auditoriya turiga mos kelishi. |
| | 26. Korrupsiya faolligini aniqlashning zamonaviy konsepsiyalari. |
| | 27. Siyosatshunoslikda “korrupsiyaga qarshi siyosat” tushunchasi. |
| | 28. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari. |
| | 29. O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan dunyodagi tendensiyalar. |
| | 30. O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar. |

| | |
|---|---|
| | **Jami: 60 soat** |
| 3 | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>• Amaliy va nazariy siyosatshunoslikning o‘xshashliklari va farqlari to‘g‘risida, siyosatshunoslikda amaliy siyosatning o‘rni va roli haqida, amaliy siyosatshunoslikning tadqiqot usullari va uslublari haqida***tasavvurga ega bo‘lishi***;**(bilim)**<br>• Amaliy siyosatshunoslikning konseptual-metodologik asoslari; amaliy siyosiy tahlilning asosiy bosqichlari va turlari (tavsifiy analitika, diagnostika, prognostika va boshqalar); siyosiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlash modellari va amaliy rivojlanish tendensiyalari; siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining asosiy modellari va protseduralari; amaliy siyosatshunoslik bilan bog‘liq asosiy kasbiy atamalar va toifalar, tamoyillar va tasniflar***bilishi va ulardan foydalana olishi***;**(ko‘nikma)**<br>Siyosiy hayotning rivojlanishining ob’ektiv qonuniyatlarini tushunish, o‘zgaruvchan siyosiy vaziyatlarga tezda moslashish va harakat qilish; siyosiy menejmentda boshqaruv ta’sirining individual texnologiyalari bilan ishlash; turli siyosiy jarayonlarda ongli ravishda ishtirok etish va asosli qaror (masalan, ayrim davlat organlariga saylovlarda) qabul qilish; siyosiy konsaltingning turli tartiblarini qo‘llash; yangi siyosiy voqelikka moslashish uchun zarur bo‘lgan siyosiy bilimlarni qo‘llash; olingan bilimlarni kasbiy amaliyotda, so‘ngra ish faoliyatida amalga oshirish***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*****(malaka)** |
| 4 | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– ma’ruzalar;<br>– interfaol keys-stadilar;<br>– seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– taqdimotlarni qilish;<br>– individual loyihalar;<br>– jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.<br>**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma’ruza mashg‘ulotlari o‘quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o‘tkaziladi. Oraliq |

| | |
|---|---|
| | nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br>**Yakuniy nazorat**<br>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. |
| **6** | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Djumayev R.Z. va boshq. Siyosiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: TDShU, 2020. –148 b.<br>2. Djumaev R.Z., Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar. – T.: TDShU, 2018.<br>– 232 b.<br>3. Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik.O'quv qo'llanma. ADU. –T:, Yangi asr avlodi, 2013.<br>4. Quranbayev Q., Mirzaaxmedov K. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma, –T.: Kamalak, 2013.<br>5. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning zamonaviy usullari va rahbar mas'uliyati. Monografiya. –T.: "Tafakkur-qanoti" nashriyoti, 2017. 224 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**:<br>6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020.<br>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.// https://lex.uz/uz/docs/-5841063<br>9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.<br>11. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 508 b.<br>12. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.<br>13. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 452 b. |

| | |
|---|---|
| | 14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.<br>15. Bekmurodov M.va boshq. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T .: G‘afur G‘ulom, 2017.– 236 b.<br>16. Vasilenko I.A. Sravnitelnaya politologiya (dlya bakalavrov). Uchebnoe posobie. M.: KnoRus. 2020.<br>17. Granovskiy S. A. Prikladnaya politologiya. Ucheb. posobiye dlya vuzov. -Moskva: Flinta, 2004. – 404 s.<br>18. Kretov B.I., Gorbunov A.A. Prikladnaya politologiya. Uchebnoe posobiye. – Moskva: Visshaya shkola, 2009. – 304 s.<br>19. Malishevskiy N.N. Texnologiya i organizatsiya viborov. – Minsk: Xarvest, 2003. – 290 s.<br>20. Mixaylov O.V. Sravnitelnaya politologiya. Uchebnik i praktikum dlya vuzov. – M.: Yurayt. 2020.<br>21. Sitnikov A.P. Politicheskiy konsalting. – Moskva: GU VShE, 2004. – 622 s.<br>22. Solovyev A.I. Prinyatiye i ispolneniye gosudarstvennix resheniy. Uchebnoye posobiye.2-ye izd., ispr. Grif FUMO. – M.: Aspekt Press, 2019. – 496 str.<br>23. Solovev A.I.Politika i upravleniye gosudarstvom : ocherki teorii i metodologii: monografiya. – Moskva: Aspekt Press, 2021.– 256 str.<br>24. Utamuradov A.va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Mumtoz so‘z”, 2018. 24,75 b.t.<br>**Axborot manbaalari**<br>25. www.prezident.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti<br>26. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>27. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>28. www.ziyonet.uz– Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ta’lim portali |
| 7 | **Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas`ul:**<br>A.Turayev (PhD) |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**K.Mirzaaxmedov –** O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, siyosiy f.b.f.d (PhD)<br>**B.Toshboyev –** Jizzax DPU, “Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, falsafa f.b.f.d (PhD) |